



TIBBIY XIZMAT SHARTNOMAVIY HUQUQIY MUNOSABATLARINING RIVOJLANISH GENEZISI

Jamshid Abdulaev Djamilovich–

“Adliya a’lochisi”, yuridik fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD).

Email:jamshidb003fb@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tibbiy xizmat shartnomaviy huquqiy munosabatlarning rivojlanish genezisiga oid masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, Chor Rossiyasi podshologi davri, Turkistonda tibbiyotning ravnaq topishi masalalari tadirjiy arxiv manbalar va birinchi darajali manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Hammurapi kodeksi, Soxmet, Valeriu Lusian Bologa, Rim imperatori Fridrix II, Menase Dosan tomonidan 15 jildlik tibbiy asar, arxiv manbalari, II.1-fond, II.19-fond, Yu.Girs, “qo‘l haqi”, “xizmat haqi”.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish munosabatlari ancha qadim-qadimdan o‘rganilgan. Qadimgi va o‘rta asrlarda bu tushuncha tabobat-tabib tushunchalari bilan uyg‘un tarzda rivojlangan. Dastlab shifoxonalar ilk diniy muassalari qoshida tashkil qilingan. Keyinchalik O‘rta Osiyoga islom dining kirib kelishi bilan vaqf tarkibida kelib tushgan nazr-niyoz, ehson va vaqf mulki tasarrufida shifoatxona, dor-ush-shifo va boshqa nomlar bilan nomlanuvchi maskanlar tashkil qilindi. Inson hamma davrlarda sihat-salomatligini ta’minlashga ehtiyoj sezgan. Shu ma’noda tibbiyot sohasida shartnomaviy huquqiy munosabatlarni paydo bo‘lishi va rivojlanishi genezisi masalasi insonning tabiiy ehtiyoji sifatida vujudga kelishini ta’kidlash o‘rinli hisoblanadi.

Shuning uchun tibbiy xizmat ko‘rsatishning rivojlanish genezisini chuqur tadqiq etish maqsadga muvofiq. Taraqqiyotning barcha bosqichlarida ko‘rsatilayotgan tibbiyot sohasidagi xizmatlarning turlari hamda shu davr tibbiyoti uchun texnika taraqqiyoti, tibbiy usul va vositalar va boshqa omillar bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘z ichiga qamrab oladi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish genezisi bevosita tibbiyot tarixi bilan bog‘liq. Deyarli barcha davrlarda bu ikki soha bir-biri bilan chambarchas bog‘langan tarzda rivojlangan. Shu ma’noda biz shu uyg‘unlikdan unumli foydalanib, tibbiyot sohasida shartnomaviy huquqiy munosabatlarni paydo bo‘lishi va rivojlanishi genezisi masalasini yoritamiz.

Qadimgi dunyo tarixida sivilizatsiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etuvchi Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va O‘rta Osiyo hududidagi ilk davlat



uyushmalarining vujudga kelishi davridan boshlab tibbiy xizmat ko'rsatish alohida soha sifatida shakllana boshlagan. Quyida tibbiy xizmat ko'rsatish amaliyoti bilan bog'liq masalalarni tadrijiy ketma-ketlikda dunyo tibbiyoti genezisi uchun eng muhim hisoblangan manbalar asosida tahlil qilamiz.

Yurtimiz tarixi haqida eng qadimgi manbalardan biri Avesto hisoblanadi. Avesto manba sifatida nafaqat tarixiy jarayonlarni, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayot uchun g'oyatda katta ahamiyat kasb etuvchi aholiga tegishli bo'lgan huquq va erkinliklarni ta'minlash vazifasini ham bajargan. Xususan, shu masalada Samarqand davlat tibbiyot instituti rektori, professor Jasur Rizayevning fikricha: "Avesto Markaziy Osiyo, Eron va Ozarbayjon hududida yashagan xalqlarning aqidalari haqidagi kitob. Kitob qismlaridan bo'lgan «Vendidat»da yozilishicha, birinchi bo'lib Trita ismli zot tabiblik bilan shug'ullangan va u odamlarni kasallik va o'limdan saqlagan. Tritaga yaxshilik «ilohi» Oxuramazda kasallarni davolash uchun samodan 10 mingta xil dori yuborgan. Trita shuningdek, Xaoma deb ataluvchi mast qiluvchi va narkotik xususiyatga ega bo'lgan ichimlikni kashf etgan, Xaoma esa hayot va salomatlik manbai deb atalgan. Kitobda Trayeton ismli tabib haqida ham ma'lumot keltirilgan va islomgacha uni tabiblik «ilohi» deb atagan"¹. Demak, yurtimizda qadimgi davrda ham tibbiy xizmat ko'rsatish amaliyoti mavjud bo'lgan. Muqaddas ichimlik, dorivor o'simliklarning manbalarda qayd etilishi fikrimizni isbotlaydi.

Qadimgi Mesopatamiyada ham tibbiy xizmat ko'rsatishga oid ijtimoiy munosabatlar, sifatsiz ko'rsatilgan tibbiy xizmat uchun javobgarlik masalasi mavjudligini qayd etuvchi manbalar mavjud. Xususan, "Fransiyadagi Luvr muzeyida miloddan avvalgi XVIII asrda Bobil xukmdori bo'lgan Hammurapi kodeksi yozilgan tosh ustun saqlanadi. Ushbu kodeks tibbiyot amaliyotiga oid qonunlarni o'z ichiga oladi va muvaffaqiyatsizlik uchun jazolar qattiq edi. Masalan, "Agar shifokor tibbiy amaliyotda bemorni o'ldirsa, uning qo'llari kesiladi"; agar bemor qul bo'lsa, shifokor shunchaki boshqa qul bilan ta'minlashi shart edi"². Mazkur qonunlar shundan dalolat beradiki, Hammurapi qonunlari qabul qilgan miloddan avvalgi asrlarda ham tibbiy muolaja davrida bemor hayoti va salomatligi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari shu davrning asosiy go'yalari ko'p xudolikka asoslanganligi sababli "Soxmet (Misr. Qudratli) - tabiblarning homiysi, urush ma'budasi, sher boshli ayol kabi sher shaklida hurmatga sazovor"³.

¹ https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-tibbiyot-rivoji-va-zamonaviy-sogliqni-saqlash-tizimi-qanday-shakllangan_336447

² <https://www.britannica.com/science/history-of-medicine>

³ Р.З. Симонян История медицины: с древнейших времен до современности. Чебоксары Издательский дом «Среда» 2020. С-12.; <https://phsreda.com/e-publications/e-publication-143.pdf>



Demak, tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq ijtimoiy munosabatlar ancha qadimiy hisoblanadi. Barcha hudud uchun tibbiy xizmat ko‘rsatishga oid ijtimoiy munosabatlar mahalliy shart-sharoit, aholining zaruriy ehtiyojlaridan kelib chiqib rivojlangan. Eng ahamiyatli jihati qadimgi Bobil podshohligida shifokorning o‘zi tomonidan amalga oshirilgan tibbiyot amaliyoti uchun huquqiy javobgarlik masalasi o‘z davri uchun muhim bo‘lgan sanksiya –majburlov chorasi bilan ihotalangan. Bundan ko‘zlangan maqsad albatta tibbiyot vakili bemor (mijoz)ning tibbiy muolajda davrida va undan keyin mas’uliyatini kuchaytirish omilidan kelib chiqib yondashish maqsadga muvofiq.

“Salomatlik va kasallik haqidagi tushuncha ming yillar davomida rivojlangan. Buyuk sivilizatsiyalarning aksariyati - Misr, Ossuriya, Bobil, Ibroniya, Afrika, Arab, Xitoy va Hindistonning o‘ziga xos an’anaviy tibbiyoti mavjud edi. Tarixdan oldingi davrlardagi kasalliklar va davolash usullari haqidagi bilimlarning arxeologik dalillari bahsli. Afrikadagi bir qancha qabilalar va Avstraliya va Amerikadagi aborigenlar o‘rtasidagi urf-odatlar va urf-odatlar bir necha ko‘rinish beradi. Qadim zamonlarda ruhoniylar yoki shamanlar kasalliklarni tashxislash va davolash uchun mas’ul bo‘lgan”⁴. Yuqorida qayd qilingani kabi ilk tamaddunlar vujudga kelgan hududlarda tibbiyot sohasi mahalliy shart-sharoit va hududda mavjud bo‘lgan aholining tabiiy ehtiyojlari asosida vujudga kelib, ilk ko‘rinishlarining shakllanishidan hozirgi rivojlanishiga qadar bo‘lgan uzoq jarayonni o‘z boshidan kechirgan. Asosiy jihat barcha qadimgi dunyo davlatlari uchun umumiy ahamiyat kasb etuvchi xususiyat sifatida deyarli dunyoning barcha hududlarida muayyan hududda istiqomat qiluvchi aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sohasi qaysi shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar din vakillari tomonidan amalga oshirilgan.

The New Public Health (Yangi jamoat salomatligi. 2014: 1–42. Onlayn nashr 2014 yil 10 oktabr) jurnalida e’lon qilingan maqolada bu haqida quyidagi mulohazalarni keltirib o‘tish maqsadga muvofiq: “VII-X asrlar orasida, cherkov hukmronligi hududidan tashqarida, musulmon tibbiyoti islom hukmronligi ostida birinchi navbatda Fors, O‘rta Osiyo va keyinchalik Bag‘dod va Qohirada gullab-yashnagan. Mashhur tabiblar, jumladan, Fors Razlari (850–932) va Buxoroda tug‘ilgan buyuk islom faylasufi va tabibi Ibn Sinna (Avitsenna, 980–1037) qadimgi yunon va mozaika ta’limotlarini tarjima qilish, tibbiy ko‘nikmalarni qo‘shganlar. Buyuk tibbiyot akademiyalari, jumladan, musulmonlar tomonidan bosib olingan

⁴ History of Medicine; <https://www.sciencedirect.com/topics/medicine-and-dentistry/history-of-medicine>



Ispaniyaning Kordova shahrida tashkil etilgan”⁵. Yuqorida vatandoshimiz ibn Sinoga berilgan ilmiy ta’rifga qo’shilamiz va uning tibbiy xizmat ko’rsatish sohasi uchun muhim bo’lgan besh jilddan iborat Kitob al-qonun fit-tibb (Tib qonunlar) asarini eslamaslikni imkoni yo’q. Tibbiyot ilmi sultoni ijodida bundan tashqari biz bilmagan bir qancha risola va asarlar ham mavjud.

Jumladan, “Ibn Sinoning — «Kitob ul-qulanj» («Ichak sanchiqlari»), «Kitob un-nabz» («Tomir ko’rish haqida kitob»), Fuj ul-tibbiya joria fi majlisihl («Tib haqida hikmatli so’zlar»), «Tadbir ul-manzil» («Turar joyning tuzilishi»), «Fil-hindubo» («Sachratqi o’simligi haqida»), «Risola fi-dastur it-tibbiy» («Tibbiy ko’rsatmalar haqida») kabi asarlari mavjud. Ibn Sino asarlarining asosiy qismi o’sha davr ilmiy tili hisoblangan arab tili, ba’zilari esa fors tilida yozilgan. Bu kitoblarni o’zbek tiliga to’laligicha tarjima qilish esa, bugun yelkamizdagi ulkan ma’naviy qarz”⁶. Tadqiqotchilarning alloma merosini tarjima qilish lozimligi haqidagi fikrlariga qo’shilamiz. Chunki bu asarlarning tarjima qilinishi yurtimizda faoliyat ko’rsatayotgan tibbiy xizmat xodimlarini aholiga tibbiy xizmat ko’rsatish madaniyatini yanada oshiradi deb o’ylaymiz.

Tibbiyot tarixi, uning rivojlanish genezisi ham boshqa sohalar kabi chuqur o’rganilgan. Bu soha bo’yicha “Valeriu Lusian Bologna (1892–1971) - tibbiyot tarixi bo’yicha birinchi Ruminiyalik professor”⁷ hisoblanadi. Ahamiyatli tomoni uning tadqiqotida dunyo davlatlari tibbiyot shakllanishi va rivojlanishi genezisi davriy ketma-ketlikda va izchil tadqiq etilgan. Olim Valeriu Lusian Bologna o’z faoliyati davomida tibbiy xizmat ko’rsatishning turlarini Osiyo, Yevropa hamda boshqa hududlarga shartli bo’lib, ularning har biriga xos bo’lgan xususiyatlar, shuningdek, tibbiy xizmat ko’rsatish shakllarining rivojlanishi asosli manbalar asosida tahlil qilinadi.

Tibbiy xizmat shartnomaviy huquqiy munosabatlarning genezisi tadqiq etish jarayonida tibbiyot tarixi bilan bevosita bog’liq. “Tibbiyot tarixining shakllantiruvchi roli XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab muhokama qilinganligini ko’rsatish kerak. Bir asrdan so’ng, tibbiyot tarixining bo’lajak shifokorlarni tayyorlashdagi ahamiyatini ta’kidlab, V.L.Bologa vrachga umumiy tibbiy xizmat ko’rsatish madaniyatini yangilash va kengaytirish imkoniyatini berish;

⁵ The New Public Health. 2014 : 1–42. Published online 2014 Oct 10. doi: 10.1016/B978-0-12-415766-8.00001-X <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7170188/>

⁶ Xurshida Baxadirovna Alimova, Dilbar Sattarovna Bozorova, Baxtiyor Ramazonovich Ramazonov. Tib ilmining buyuk allomasi abu ali ibn sino o’gitlarining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati // Academic research in educational sciences. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tib-ilmining-buyuk-allomasi-abu-ali-ibn-sino-o-gitlarining-yosh-avlod-tarbiyasidagi-ahamiyati>

⁷ <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC5433581/>



sivilizatsiya tarixining eng go‘zal boblaridan biriga e‘tiborini qaratish va tibbiyot o‘tmishiga uning ajoyib qahramonlarini hurmat qilishni targ‘ib qilish kabi bir qancha maqsadlarni ko‘rsatdi”⁸. Keyichalik professor V.L.Bologa tomonidan olib borilgan tibbiyot genezisi mavzusidagi tadqiqot barcha universitetlarda o‘quv adabiyoti sifatida chop qilindi.

O‘rta asrlarda Yevropada ham tibbiyot rivojlandi. Ayniqsa tibbiy xizmat ko‘rsatish shifokorlarini tayyorlashda Evropada birinchi tashkil etilgan Italiyaning janubidagi Salerno shahrida tibbiyot maktabi alohida o‘rin egallaydi. “Salerno maktabi hech qanday ajoyib daho va hayratlanarli kashfiyot yaratmagan bo‘lsa-da, u o‘z davrining ajoyib tibbiyot muassasalari Fransiyaning yaqinda Monpelye, Parijda, Boloniya va Padua shaharlarida tashkil etiladigan buyuk o‘rta asr maktablarining ota-onasi edi. Salerno ayollarni tibbiyot talabalari sifatida qabul qildi. Maktab ma‘rifatparvar Muqaddas Rim imperatori Fridrix II ga katta qarzdor edi. Chunki shahar 1221 yilda Salerno ustalari tomonidan omma oldida tasdiqlanmaguncha hech kim tibbiyot bilan shug‘ullanmasligi kerak degan farmonga ega edi”⁹. Mazkur farmoning qabul qilinishi keyinchalik Yevropa uchun tibbiy xizmat ko‘rsatishda tamal toshini qo‘ygan barcha Yevropa davlatlaridagi tibbiyot oliygohlariga maxsus olimlar yetkazib berish vazifasini ham bajardi. Keyinchalik yuqorida nomlari qayd qilingan tibbiyot oliygohlarida tahsil olgan talabalar o‘zlarining tibbiy bilim va malakalarini amaliyotda qo‘llash bilan birga, tarqatish vazifasini ham bajarishdi.

Tibbiyot xizmat ko‘rsatish sohasida mavjud shartnomaviy huquqiy munosabatlarni o‘rganish jarayonida tadqiqotimizning bir tomonlama xususiyat kasb etmasligi uchun dunyo mamlakatlarida bir xil davrda qanday shaklda tibbiy xizmat ko‘rsatish rivojlanganligini qiyosiy-huquqiy tahlil qilishimiz lozim. Shu ma‘noda ayrim mamlakatlarning tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq genezisiga oid ma‘lumotlariga to‘xtalib o‘tamiz. Aynan shu davrda Yaponiyada ham tibbiyot boshqa sohalar singari rivojlandi. “1570 yilda Menase Dosan tomonidan 15 jildlik tibbiy asar nashr etildi, u kamida beshta boshqa asar yozgan. Ulardan eng muhimi, Keytekishu (1574; tibbiyot amaliyoti bo‘yicha qo‘llanma), kasalliklar yoki ba‘zan shunchaki alomatlar - 51 guruhga bo‘lingan va tavsiflangan; asar g‘ayrioddiy, chunki unda keksalik kasalliklari bo‘limi mavjud”¹⁰. Yaponiyada tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq munosabatlarning o‘ziga xos tomoni shundaki, hududda asosan tibbiy

⁸ Bologa VL. Introduction - Pro domo. In: Bologa VL, Bercuş C, Brătescu G, Vătămanu N, editors. *Istoria Mediciniei Universale*. [History of International Medicine]. Bucharest: Medical Publishing House; 1970. p. 15. [Google Scholar] [Ref list]

⁹ <https://www.britannica.com/biography/Frederick-II-Holy-Roman-emperor>

¹⁰ <https://www.britannica.com/science/history-of-medicine/Japan>



davolash muolajalarida dorivor o‘simliklar hamda dengiz, okean – suv havzalarida mavjud dorivor xususiyatga ega tabiiy damlamalar va mahsulotlar bilan davolashga alohida e‘tibor qaratilgan. Bundan tashqari Osiyo davlatlarining katta qismida guruch vositasida, parhez bilan davolash ham tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonida foydalanilgan.

Turkiston general-gubernatorligi davrida tibbiyot sohasida aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq arxiv hujjatlari va statistika hisobotlarida bir qancha shu davrga xos ma‘lumotlar uchraydi. Mazkur manbalarni ilmiy nazariy tahlil qilish jarayonida quyidagilarni alohida ajratib ko‘rsatishimiz lozim: “Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi” (И.1-фонд), “Samarqand viloyati boshqarmasi” (И.17-фонд), “Farg‘ona viloyati boshqarmasi” (И.19-фонд) fondlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, Toshkentdagi mahalliy ayollar va bolalar shifoxonasining 1897-yilgi hisobotida bir yil davomida har oyda shifoxonaga murojaat qilgan bemorlar soni va ularning milliy tarkibi ro‘yxati qayd qilingan. Ular orasida tarqalgan kasalliklar 21 guruhga bo‘lingan¹¹. Boshqa shaharlardagi xususan, Qo‘qon shahri mahalliy ayollar va bolalar shifoxonasi faoliyati¹², Namangan¹³ va Eski Marg‘lon¹⁴da shifoxonalar ochilishi va faoliyati, tibbiy xizmat ko‘rsatish masalasida birinchi darajali manba vazifasini bajaradi. Mazkur ma‘lumotlar rasmiy statistik raqamlarda berilgan bo‘lsa, bundan tashqari bemor va xalq orasida “tabib” nomi bilan tanilgan bir qancha jismoniy shaxslar o‘rtasida erkin narxlar asosida kelishilgan natura tarzida yoki naqd to‘lov asosida faoliyat ko‘rsatishgan. Tabiblar tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonida asosan dorivor o‘simliklar va giyohlardan foydalanilganligi oid ma‘lumotlar tarixiy manbalarida qayd qilingan.

Shaharlarda aholi soni va mahalliy sharoitlardan kelib chiqib, ilk kasalxonalar, qishloq hududlarida qishloq feldsherlik punktlari barpo etildi. Ammo, bunday sharoit shu davr tibbiyot ehtiyojlari uchun qoniqarli bo‘lmagan. Mazkur davr matbuotida, “ambulatoriya yordami tibbiy faoliyatining eng ibtidoiy va mukammal bo‘lmagan ko‘rinishi”¹⁵ da ekanligi yoritilgan. Demak, XIX-XX asrda tashkil etilgan ambulatoriya yordami deb atalgan kasalxonalarda tibbiy xizmat ko‘rsatish sifati bir qadar past bo‘lganligi xususida xulosaga kelishimiz mumkin.

Chor Rossiya podsholigi davrida O‘rta Osiyo mahalliy tadqiqotchilar bilan birga xorijiy sayyoxlar tomonidan ham o‘rganildi. O‘lkani tabiiy imkoniyatlari,

¹¹ Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.17-фонд, 1-рўйхат, 28996-иш, 2-8 вароқлар

¹² Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.19-фонд, 1-рўйхат, 36654-иш, 1-85 вароқлар

¹³ Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.1-фонд, 16-рўйхат, 2065-иш, 35 вароқлар

¹⁴ Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.19-фонд, 1-рўйхат, 24096-иш, 1-29 вароқлар

¹⁵ Успехи русской медицины среди туземцев // Туркестанский курьер. 1909. № 172.



mavjud shart-sharoitni tadqiq etish, zaruriy maxfiy ma'lumotlarni to'plash va xavfsiz xolatda markazga yetkazish, bosib olingan hududlarni imperiya manfaatlariga bo'ysundirish maqsadida bir qancha maxfiy maslahatchilar Turkistonga tashrif buyurdi. Arxiv ma'lumotlari orasida maxfiy maslahatchi Yu.Girs tomonidan to'plangan juda ko'p tibbiy xizmat ko'rsatishga oid ma'lumotlarni uchratish mumkin. Masalan, "Yu.Girs o'zining hisobotida 1905-07-yillarda zemstvo mablag'larining umumiy 0.6% tibbiy sohaga yo'naltirilgan bo'lsa, general-gubernatorning uyi va dala hovlisi hamda viloyat harbiy gubernatori uchun 37% ajratilganligin ta'kidlaydi. Bundan ko'rish mumkinki general gubernatorlik tibbiyot tizginini to'la qo'llarida ushlagan bo'lsalarda, bu faqat siyosiy maqsadlarni ko'zlab qilingan ish bo'lib, sohani moddiy ehtiyojlari hamda kengaytirish va rivojlantirish istiqbollari borasida qariyb bosh qotirmagan. Bu kabi moliyaviy omillar natijasida bu soha hududlarda ilk davrda tashkil qilingan holaticha qolaverdi. Ikkinchi tomondan aholidan olayotgan mablag' bilan tibbiy tizimga ajratilgan summa o'rtasida tafavut bor ekanligi ayon bo'ladi. Yuqorida Turkistonga asosan markaziy o'lkalardan shifokorlar olib kelingan va turli imtiyozlar qo'llanilgani qayd etildi"¹⁶. Demak, Turkiston ASSRda tibbiy xizmatlarni shartnomaviy huquqiy xususiyatlarini o'rganish muhim. Tibbiyot sohasiga pul mablag'larini faol yotqizishdan bir paytning o'zida siyosiy maqsadlar, xususan o'lkani ruslashtirish, tibbiy xizmatlar ko'rsatilishi bilan aholining oila munosabatlariga kirish maqsadlari ko'zlangan bo'lishi mumkin.

Tibbiyot sohasida shartnomaviy huquqiy munosabatlarni paydo bo'lishi va rivojlanishi genezisini tadqiq etish jarayonida Turkiston ASSRda tibbiy xizmat haqida quyidagi ma'lumotlarni ta'kidlashimiz lozim: "1918-yilga kelib esa sobiq kadetlar korpusi binosida davolash muassasasi (hozirgi 1-ToshTIning o'quv bazasi), 1926-yilda Toshsovet nomli fizioterapiya kasalxonasi; Ko'kcha dahasida epidemiologiya kasalxonasi (hozirgi 1-Yuqumli kasalliklar shifoxonasi) faoliyatini boshlagan"¹⁷. Bu shifoxonaning tashkil etilishi bilan o'lkada mavjud yuqumli va o'z davri uchun davolash murakkab bo'lgan kasalliklar davolanib, aholi bilan tibbiy shartnomaviy munosabatlarga kirishilgan.

Aynan aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishga oid bir qancha tadqiqotlar yurtimizda amalga oshirilmoqda. Ahamiyatli tomoni mazkur tadqiqotlarning ayrimlari tibbiy xizmat ko'rsatishning genezisi bilan bevosita bog'liq maxusu tadqiqotlar hisoblanadi. Shunday tadqiqotlardan biri: "O'zbekiston Respublikasi Fanlar

¹⁶ Xurshid Jumanazarov. UzRFA Tarix instituti Turkiston general gubernatorligining tibbiy sohadagi moliyaviy siyosati https://www.researchgate.net/publication/376784054_Turkiston_general_gubernatorligining_tibbiy_sohadagi_moliyaviy_siyosati

¹⁷ <https://www.archive.uz/post/ozbekistonda-tibbiyot-muassasalari-tarixiga-qisqacha-nazar-arxiv-hujjatlari-asosida>



akademiyasi Tarix instituti tomonidan professor S.B.Shadmanova mas'ul muharrirligi ostida "XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda tibbiyot va xalq tabobati" nomli monografiya nashr etildi"¹⁸. Demak, O'zbekiston Respublikasida tibbiy xizmat ko'rsatishning rivojlanishi genezisining tarixiy xususiyatlarini kompleks tadqiq etilgan, ammo huquqiy nuqtai nazardan shartnomaviy huquqiy munosabatlar masalasi o'rganilmagan. Shu bois ayni paytda nazarimizda tibbiy xizmat ko'rsatish masalasini fuqarolik huquqi tizimida shartnomaviy huquqiy asoslarini o'rganishga zaruriyat mavjud.

Mazkur davr Turkiston o'lkasi nafaqat rus tadqiqotchilar tomonidan balki, xorijiy mamlakatdan tashrif buyurgan olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, XIX asr Turkiston tibbiyoti masalasida bilan bir qancha xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan maxsus shug'ullanib, tadqiqot ishi yoki sayohatnoma tarzida risolalar bitilgan. Jumladan:

- AQSHning Rossiya imperiyasidagi elchixonasida faoliyat yuritgan, 1873-yilda O'rta Osiyoga safar qilib, safar davomida 2 tomli "Turkistan: Notes of a Journey in Russian Turkistan, Kokand, Bukhara and Kuldja. New York. Scriber Armstrong @ Co.1876" asarini muallifi Yu.Skayler;

- Buyuk Britaniya qirolligi Geografik jamiyati a'zosi, 1882-yilda Rossiya orqali O'rta Osiyoga kelgan va 2-tomli "Russian Central Asia including Kuldja, Bukhara, Khiva and Merv // London. 1885" asarining muallifi H.Lansdell;

- A.Miken Buyuk Britaniya va Irlandiya antropologiya instituti xodimi, O'rta Osiyoga tadqiqot uchun kelgan va tadqiqot natijalarini umumlashtirib, "In Russian Turkestan: A Garden of Asia and Its People // London, 1903";

- 1896-1898-yillarda Markaziy Osiyoga maxsus ekspeditsiya bilan kelgan, Daniya qirolligi geografiya jamiyat a'zosi, "The Emir of Bukhara and his Country //Nielsen@Lydichf. Copenhagen. 1911" asarining muallifi O.Olufsen va boshqalar. Faqat ahamiyatli jihati shundaki, mazkur tadqiqotlarda asosiy urg'u O'rta Osiyo hududida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning kompleks masalasi, tibbiy xizmat shart-sharoitlari mustamlaka sharoitidagi mavjud ahvol va statistika raqamlari bayon qilingan.

Yuqorida nomlari qayd qilingan xorijiy olimlar tomonidan yozilgan tadqiqotlarni mavjud arxiv manbalari bilan qiyosiy taqqoslash yo'li bilan Turkistonda tibbiy xizmat ko'rsatish masalalariga xolisona baho berish imkoniyatiga ega bo'ldik. Chunki, Turkistonga bag'ishlangan arxiv manbalarining katta qismi

¹⁸ <https://academy.uz/uz/news/XIX-asr-oxiri-xx-asr-boshlarida-turkistonda-tibbiyot-va-xalq-tabobati-nomli-monografiya-nashr-etildi>



aynan Podsho Rossiyasi missiyasi vakillari bo‘lgani sababli tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq voqeilikni siyosiy nuqtai nazaridan yoqlashga xarakat qilish omili mavjud. Yu.Skayler, H.Lansdell, A.Miken, O.Olufsen kabi tadqiqotchilarning asarlari bilan mavjud arxiv hujjatlarini taqqoslash bizga tadqiqotimizda bir tomonlama fikrlashdan chekinish hamda XIX-XX asrlarda Turkistonda tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq shartnomaviy munosabatlarni ilmiy tahlil qilish, yutuqlar va kamchiliklarni anglash imkoniyatini beradi.

Turkistonda bundan tashqari xalq tabobati, asrlar davomida shakllangan tashxis qo‘yish usullari, kasalliklarni aniqlash va mavjud tibbiy munosabatlar an‘analar, ish muomilasi va rasm-rusumlar bilan ham tartibga solingan. Mazkur tibbiy munosabatlarni yoritish, davolash va tashxis masalasida quyidagi birinchi darajali manbalarni qayd etishimiz lozim: “Ibn Baytor (Molikiy)ning “Jomi”, Antokiyning “Tazkiya uli-l-asbob”, Shayx Yusuf Bag‘dodiyning “Ma la yasa’ li-t- tabib jahlah” (Tabibning mayusligi uning bilmasligidandir), Shayx Ismoil bn Haybatullohning “Irshod”, Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammadning “Tazkirat as-suvaydiya”, Hakim Hoji Zayniddin Attorning “Ihtiyoroti Badi’iy”, Hakim Mir Muhammad Mo‘min Tungoniyning “Tuhfat ul-mo‘miniyn”, Hakim Mir Abdul Hamidning “Tuhfat ul-mo‘miniyn”, Hakim Mir Muhammad Qosimning “Ixtiyoroti Qosimiy”, Hakim Mir Muhammad Afzalning kitoblari va boshqa hind kitoblari”¹⁹ va boshqa mualliflarning tibbiyot xususan, tibbiy xizmat ko‘rsatishga oid asarlarini qayd etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Asarlarning barchasida asosiy masala davolash yo‘llari, dorivor o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlari, shuningdek, tabib etikasi, tabib (tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi) va bemor (buyurtmachi) o‘rtasida mavjud munosabatlarni tartibga solish va boshqa masalalar yoritilgan.

Ma’lumki, XX asrning 20-yillarida mamlakatimizda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilishi natijasida sobiq O‘zbekiston SSR vujudga keldi. Ijtimoiy hayotning tarkibiy qismi sifatida albatta mazkur davlatda ham tibbiy xizmat ko‘rsatish masalasiga alohida yondashuv lozim edi. Bu davrda barcha muassasalarning huquqiy maqomi yuridik shaxs sifatida davlat qarashli bo‘lganligi bois tibbiy tashkilotlarning to‘liq ta’minoti davlat mablag‘lari hisobidan qoplendi. Biroq o‘lkada bu davrda ham nolegal tarzda tabiblar faoliyat ko‘rsatgan. Sobiq O‘zbekiston SSRda tibbiyot sohasida shartnomaviy huquqiy munosabatlarni paydo bo‘lishi va rivojlanishi genezisi mavzusida quyidagi ma’lumotlarni keltirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: “Buxoro viloyat davlat arxivi saqlovidagi fond-

¹⁹ Bositxon in Zohidjon Shoshiy. Favoid ul-adviya va mavoid ul-ag‘ziyya. (Dorilarning foydalari va ovqatlarning dasturxonining manfaatlari). Tabdil va so‘zboshi muallifi M. Hasaniy. Toshkent: Fan, 2007. B-9.



1023, ro‘yxat-1, 180-raqamli yig‘majildda O‘zbekiston SSR xalq komissarlari soveti tomonidan 1944-yil 23-noyabr sanasida tasdiqlangan tibbiyot muassasalarini kapital ta‘mirlash to‘g‘risidagi 1441-sonli qarori saqlanmoqda. Ushbu arxiv hujjatida tibbiyot muassasalarini kapital ta‘mirlashga oid qilinishi rejalashtirilgan tadbirlar, hamda ularga ajratilgan mablag‘lar ko‘rsatilgan”²⁰. Yuqorida bayon etilgan arxiv hujjatlaridagi ma‘lumot tibbiy xizmatlarning mablag‘ bilan ta‘minlanishi to‘liq davlat tomonidan amalga oshirilganligini faktini tasdqilaydi. Demak, ikkinchi jahon urushi tufayli O‘zbekistonda tibbiyot muassasalarini kapital ta‘mirlashga ehtiyoj sezildi. Sababi, aynan shu davrda frontdan katta hajmda yarador askarlar oqimining davolanish maqsadida nisbatan tinchroq O‘zbekistonga yuborilishi tufayli tabiiy zaruriyatga aylandi. Bu davrda deyarli tibbiyot O‘zbekiston SSR XKS (Xalq komissarlari soveti) tomonidan qabul qilingan hujjatlar bilan tartibga solingan. Tibbiy muassasaga tashrif buyurgan bemor bilan amalda shartnomaviy munosabatga deyarli kirishilmagan. Asosan ma‘muriyatchilik nuqtai nazaridan ayrim hujjatlarga bemor (mijoz) imzo chekkan va shifokor fuqarolik majburiyati sifatida o‘z vazifasini bajargan. Tibbiy muolajaning muvaffaqiyatsiz yakunlanishi yoki shunga o‘xshash ko‘ngilsiz hodisalar “xudoning irodasi”, “qo‘limizdan kelgan barcha ishlarni qildik ammo saqlab qolishning imkoniyatini topa olmadik” qabilidagi javoblar yakun topgan. Shifokor va bemor o‘rtasida qonuniy asoslarda shartnomaviy munosabatlarga kirishilmagan. Lekin ayrim manbalarda shifokor uchun “qo‘l haqi” , “xizmat haqi” kabi minnatdorchilik bildirilganligiga oid ma‘lumotlar uchraydi.

Yuqoridagi ma‘lumotlar asosida O‘rta Osiyo xususan, O‘zbekistonda tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomaviy munosabatlari ancha qadimiy ildizlarga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Tibbiy xizmat shartnomaviy huquqiy munosabatlarning genezisini ilmiy-nazariy tahlili natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

birinchidan, tibbiyot sohasida shartnomaviy huquqiy munosabatlarni paydo bo‘lishi va rivojlanishi genezisida zamonaviy tibbiy xizmatlarni shartnomaviy-huquqiy asoslarini mavjud milliy mentalitetga xos tomonlarini inobatga olgan holda rivojlantirish uchun muhim ekanligi inobatga olinsin.

ikkinchidan, qadimgi davrda tibbiy xizmatlar, ilk o‘rta asr davlatlari Eftaliylar davlati va Turk hoqonligi davri, o‘rta asr tibbiy xizmat ko‘rsatish va shifoxonalar masalasida “Tib qonunlari” shoh asarining muallifi, mutaffakkir, qomusiy olim Abu Ali ibn Sino faoliyati hamda Temuriylar davrida tibbiy shartnomaviy munosabatlar

²⁰ <https://www.archive.uz/post/ozbekistonda-tibbiyot-muassasalari-tarixiga-qisqacha-nazar-arxiv-hujjatlari-asosida>



genezisi, Shayboniylar davrini Hofiz Tanish Buxoriy, Фазулллоҳ ибн Рўзбихон va boshqa tarixchi olimlarning asarlari asosida, Ashtarxoniylar davri XVI-XVII asrlarda, shuningdek O'rta Osiyo xonliklari davrida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning rivojlanishi genezisi, tibbiy xizmat ko'rsatish usullari, haq to'lash masalalari, og'zaki va yozma tarzda tuzilgan shartnomaviy munosabatlarni tahlil qilish lozim.

uchinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatishning rivojlanishi, genezisi masalasida boy xorijiy davlatlar tajribasi, Turkiston general-gubernatorligi va O'zbekiston SSRdagi tadrijiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari arxiv hujjalari va birinchi darajali manbalar asosida ilmiy-nazariy tahlil qilindi. Shuningdek, chor Rossiyasi podsholigi davrda tibbiyot sohasidagi munosabatlar, Turkistonda dastlabki tibbiy tashkilotlarning tashkil topishi hamda rivojlanishi masalasi bilan birgalikda buyurtmachi (bemor) va tibbiy tashkilot o'rtasidagi shartnomaviy munosabatlarning rivojlanish genezisi o'rganildi.

to'rtinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy huquqiy munosabatlarning genezisi mahalliy tibbiyot sohasi olimlari – Ibn Baytor (Molikiy), Antokiy, Hakim Mir Abdul Hamid, Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad, Hakim Hoji Zayniddin Attor, Shayx Ismoil bn Haybatulloh va hududga tashrif buyurgan xorijiy tadqiqotchilar – Yu. Girs, Yu.Skayler, H.Lansdell, A.Miken, O.Olufsen kabi tadqiqotchilarning asarlariga asoslanib tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://uza.uz/oz/posts/ozbekistonda-tibbiyot-rivoji-va-zamonaviy-sogliqni-saqlash-tizimi-qanday-shakllangan_336447
2. <https://www.britannica.com/science/history-of-medicine>
3. Р.З. Симонян История медицины: с древнейших времен до современности. Чебоксары Издательский дом «Среда» 2020. С-12.; <https://phsreda.com/e-publications/e-publication-143.pdf>
4. History of Medicine; <https://www.sciencedirect.com/topics/medicine-and-dentistry/history-of-medicine>
5. The New Public Health. 2014 : 1–42. Published online 2014 Oct 10. doi: 10.1016/B978-0-12-415766-8.00001-X <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC7170188/>
6. Xurshida Baxadirovna Alimova, Dilbar Sattarovna Bozorova, Baxtiyor Ramazonovich Ramazonov. Tib ilmining buyuk allomasi abu ali ibn sino o'gitlarining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati // Academic research in educational



- sciences. 2021. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tib-ilmining-buyuk-allomasi-abu-ali-ibn-sino-o-gitlarining-yosh-avlod-tarbiyasidagi-ahamiyati>
7. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC5433581/>
8. Bologna VL. Introduction - Pro domo. In: Bologna VL, Bercuş C, Brătescu G, Vătămanu N, editors. Istoria Mediciniei Universale. [History of International Medicine]. Bucharest: Medical Publishing House; 1970. p. 15. [Google Scholar] [Ref list]
9. <https://www.britannica.com/biography/Frederick-II-Holy-Roman-emperor>
10. <https://www.britannica.com/science/history-of-medicine/Japan>
11. Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.17-фонд, 1-рўйхат, 28996-иш, 2-8 вароқлар
12. Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.19-фонд, 1-рўйхат, 36654-иш, 1-85 вароқлар
13. Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.1-фонд, 16-рўйхат, 2065-иш, 35 вароқлар
14. Ўзбекистон Марказий Давлат Архиви, И.19-фонд, 1-рўйхат, 24096-иш, 1-29 вароқлар
15. Успехи русской медицины среди туземцев // Туркестанский курьер. 1909. № 172.
16. Xurshid Jumanazarov. UzRFA Tarix instituti Turkiston general gubernatorligining tibbiy sohadagi moliyaviy siyosati https://www.researchgate.net/publication/376784054_Turkiston_general_gubernatorligining_tibbiy_sohadagi_moliyaviy_siyosati
17. <https://www.archive.uz/post/ozbekistonda-tibbiyot-muassasalari-tarixiga-qisqacha-nazar-arxiv-hujjatlari-asosida>
18. <https://academy.uz/uz/news/XIX-asr-oxiri-xx-asr-boshlarida-turkistonda-tibbiyot-va-xalq-tabobati-nomli-monografiya-nashr-etildi>
19. Bositxon in Zohidjon Shoshiy. Favoid ul-adviya va mavoid ul-ag‘ziyya. (Dorilarning foydalari va ovqatlarning dasturxonining manfaatlari). Tabdil va so‘zboshi muallifi M. Hasaniy. Toshkent: Fan, 2007. B-9.
20. <https://www.archive.uz/post/ozbekistonda-tibbiyot-muassasalari-tarixiga-qisqacha-nazar-arxiv-hujjatlari-asosida>